**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALIShER NAVOIY NOMIDAGI TOShKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

"TASDIQLAYMAN"
Rektor_________Sh.Sirojiddinov
201_8_-yil "25" _08_

"KELIShILDI"
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
_______________
201_8_-yil "_25_" _08_
Ro'yxatga olindi: №BD-5120900-3.18
№BD-5120100-3.06
201_8_-yil "_18_" _08_

# ShARQ TILLARI

| | | |
|---|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 | – Gumanitar soha |
| Ta'lim sohasi: | 110000 | Pedagogika |
| Ta'lim yo'nalishi: | 5120900 | O'zbek ingliz tarjima nazariyasi |
| | 5120100 | – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) |

Toshkent – 2018

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil "25" - 08 dagi "744"-sonli buyrug'ining 6-ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2018-yil "18" - 08 dagi 4 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

| | |
|---|---|
| Sotiboldiyeva S. | – ToshDO'TAU, "Sharq tillari" kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, dotsent |
| Abdirashidov Z. | – ToshDO'TAU, "Sharq tillari" kafedrasi dotsenti, PhD |

**Taqrizchilar:**

| | |
|---|---|
| Shamsimuhamedov I. | ToshDO'TAU, "Sharq tillari" kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi |
| Hamroyev J. | SamDU, "Tojik tili va adabiyoti" kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori |

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018-yil "05" - avgustdagi 13 -sonli bayonnoma).

## I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

O'zbek tili va adabiyoti, folklorining tarixan shakllangan adabiy, lingvistik maktablari va ta'limotlarini, mumtoz va zamonaviy metodlarini, buyuk ajdodlarimizning o'zbek va jahon tilshunosligi rivojiga qo'shgan hissasi, ularning ilmiy merosi, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari, o'zbek tili va adabiyotining rivojlanish istiqbollari bilan bog'liq ilmiy muammolarni tadqiq etish uchun arab va fors tillari va ularning grammatik normalarini o'rganish dolzarblik kasb etadi.

"Sharq tillari" fani arab va fors tilini o'z ichiga oladi. Namunaviy dastur har ikki tilga oid ma'lumotlarni qamrab olgan.

"Sharq tillari" bo'yicha bakalavr kursining maqsad va vazifalari o'zbek tili va adabiyotining har tomonlama taraqqiy topishida Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi ilmu fan va adabiyot namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosini, ayniqsa Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammadrizo Ogahiy, Boborahim Mashrab, Muqimiy, Furqat kabi o'nlab mumtoz adiblarimizning umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o'rin olgan o'lmas asarlarini chuqur o'rganish va ilmiy asosda tadqiq etishga qaratilgan bo'lib talabalarda ilmiy axborot bilan ishlash ko'nikmalarini va malakalarini shakllantirish, o'qish, yozish, arab imlosidagi qo'lyozma, toshbosma gazeta, jurnal va ilmiy asarlarni o'qishga, ulardan o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan axborotlarni olishga o'rgatish, joriy imloga tabdil va tahlil qila olishlariga erishish.

"Sharq tillari" fani asosiy ixtisoslik fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fan dasturi "O'zbek tili tarixi", "O'zbek folklori", "O'zbek adabiyoti tarixi", "Navoiyshunoslik", "Matnshunoslik", "O'zbek tilshunosligi tarixi", "Leksikografiya asoslari", "O'zbek dialektologiyasi", "O'zbek mumtoz poetikasi asoslari" kabi umumkasbiy fanlar bilan uzviy bog'langan bo'lib, ushbu fanlarda aks etgan ayrim adabiy-nazariy masalalarni qamrab olishi jihatidan uyg'unlik kasb etadi.

## II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga arab va fors tillarining nazariy asoslari, ularning asosiy grammatik kategoriyalarini o'rgatish hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilish.

Fanning vazifasi – talabalarda ilmiy axborot bilan ishlash ko'nikmalarini va malakalarini shakllantirish, o'qish, yozish, arab imlosidagi qo'lyozma, toshbosma gazeta, jurnal va ilmiy asarlarni o'qishga, ulardan o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan axborotlarni olishga o'rgatish, joriy imloga tabdil va tahlil qila olish ko'nikmasini hosil qilish.

"Sharq tillari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida ***talaba***:

- arab yozuvi va uning tarqalishi, arab harflarining o'ziga xos xususiyatlari, arab va fors tili fonetikasi, morfologiyasi, punktuatsiyasi, arab va fors tili lug'ati,

arab va fors tiliga xos qisqa va cho'ziq unlilar va boshqa belgilar, arab va eski o'zbek yozuvidagi o'zaro farqlar haqida *tasavvurga ega bo'lishi*;

- arab va fors tilida imlo qoidalarini, arab va fors tilida so'z yasalishini, arab va fors tilida o'zak va u orqali so'zlarni topa bilishni, arab imlosidagi matnlarni qiyinchiliksiz mutolaa qilib tabdil qila olishni, o'zbek tili tarkibidagi arab va fors so'zlarni tahlil qila olishni;
- arab va fors imlosining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, arab va fors tilida so'z yasalishi va grammatik qoidalarini aniqlash, arab yozuvidagi manbalarni farqlash, arab alifbosidagi matnlarni o'qish, arab imlosidagi matnlarini transkripsiya qilish, arab imlosida yozishni bilish, arab va fors tilidagi so'z va iboralarini tarjima qilishda lug'atdan foydalana bilish, arab imlosida xatosiz yoza ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;
- ilmiy axborot bilan ishlash, o'qish, yozish, arab imlosidagi qo'lyozma, toshbosma gazeta, jurnal va ilmiy asarlarni o'qish, ulardan o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan axborotlarni olish, joriy imloga tabdil va tahlil qila olish va ulardan foydalanish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***.

## III. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)
## Arab tili qismi bo'yicha

### 1-Modul. Arab tili tovushlar tizimi va yozuv

#### 1-mavzu. Kirish. Fonetika va yozuv. Umumiy ma'lumotlar

Arab yozuvi va uning tarqalishi. Arab adabiy tilining vujudga kelishi. Klassik arab tili. Hozirgi zamon arab adabiy tilining shakllanishi. Arab lahja(sheva)larining o'ziga xosligi. Arab alifbosi.

#### 2-mavzu. ا، ب، ت، ث، ك، م، و، ن ی harflari. Qisqa va cho'ziq unlilar

Arab harflarining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbek va arab tillaridagi undoshlarning qiyosiy tasnifi. Arab tiliga xos undosh tovushlar. Unli tovushlar va ularning yozilishi. Bo'g'in.

#### 3-mavzu. ذ، ر، ز، د، خ، ح، ج harflari. Tashdid

Shadda, ya'ni ikkilantirish belgisining so'zlarda ishlatilishi. So'zlarni to'g'ri o'qish qoidalari. Alif maqsura, ya'ni qisqa alifning so'zning oxirida o'qilish qoidasi. Ta-marbuta, ya'ni bog'langan "t" shaklining so'zda kelishi.

#### 4-mavzu. ل، ق، ف، ط، ظ، ع، غ harflari. Tanvin

Arab tilida tanvin, ya'ni kelishiklarning turlari. Tanvin damma (bosh kelishik)ning so'z oxirida o'qilishi. Tanvin kasra (qaratqich kelishik)ning so'z oxirida o'qilishi. Tanvin fatha (tushum kelishik) shakli.



#### 5-mavzu. س، ش، ص، ض، ه harflari. Hamza

Arab tilida hamzaning turlari. Qat'iy (o'qiladigan) hamza va uning imlo qoidalari. Vaslali (o'qilmaydigan) hamzaning yozuvda ifodalanishi.

#### 6-mavzu. Shamsiy va qamariy harflar. Aniqlik artikli

Arab alifbosining 2 guruhga bo'linishi. Shamsiy harflar va ularning nomlanishi. Qamariy harflarning nomlanishi. Al-artikldagi "l" tovushining talaffuzi. Qamariy harf bilan boshlangan so'zlarning talaffuz etilishi. Shamsiy harflar bilan boshlangan so'zlarning talaffuzi.

#### 7-mavzu. Eski o'zbek yozuviga xos harflar

Eski o'zbek yozuvga xos harflar, ularning nomlanishi, yozilish shakllari va o'qilish qoidalari.

#### 8-mavzu. Eski o'zbek yozuviga xos harfiy birikmalar va ularning o'qilishi

**Alif yo (y).** So'z boshida qo'llanishi, uning «e», «i» unlisini ifoda qilishi, forscha, ba'zan turkiy so'zlarda «yo» harfining yozilmaslik an'analari yoki harakat bilan berilishi.

**Alifu vov.** So'z boshida qo'llanishi, uning «u», «o'» unlilarini ifoda qilishi. Arabcha, forscha, ba'zan turkiy so'zlarda **vov** harfining yozilmaslik an'analari yoki harakat bilan berilishi.

**Vovu alif.** So'z o'rtasida, so'z oxirida **u** unlisining cho'ziq talaffuz qilinishini bildirishi, «o» unlisi kabi o'qilishi.

**Nunu kof.** So'z o'rtasida va oxirida qo'llanishi, hozirgi o'zbek tilidagidek «ng» tovushini ifoda qilishi.

#### 9-mavzu. Isloh qilingan eski o'zbek yozuvi va uning imlosi

Arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuvining isloh qilinishi tarixi, uning «Chig'atoy gurungi» tashkiloti tomonidan amalga oshirilishi, yutuq va kamchiliklari. Unli tovushlarni ifoda qiluvchi harflar, undosh tovushlarni ifoda qiluvchi harflar, arab so'zlaridagi undosh harflar taqdiri, harakatlar taqdiri, raqamlar islohi.

### 2-modul. So'z turkumlari. Ismning turlari va uning grammatik kategoriyalari

#### 1-mavzu. Ot so'z turkumi

Arab tilida otlarning turlari. Turdosh otlar va ularga oid so‘zlar. Yakka shaxs ismi, geografik joy nomi, narsa yoki jonivorning nomini anglatib kelgan atoqli otlar.

**2-mavzu. Sifat. Tub, nisbiy va rangni anglatuvchi sifatlar**

Arab tilida sifatlarning turlarga bo‘linishi. Tub sifat va uning xususiyatlari. Nisbiy sifatga oid so‘zlarning ma’no xususiyatlari.

**3-mavzu. Olmoshlar**

Arab tilida olmoshlarning turlari. Kishilik olmoshlari. Ko‘rsatish olmoshlari, turlari, ularning gapdagi vazifalari. So‘roq olmoshlari. Birikma olmoshlari. Ot bilan keluvchi birikma olmoshlarining vazifalari. Ajratuvchi yoki ta’kidlovchi olmoshning gapdagi vazifasi va qo‘llanilishi.

**4-mavzu. So‘z o‘zagi. O‘zak undoshlar. Shakl yasovchi undoshlar**

Arabcha so‘z o‘zagi undosh harflardan iboratliligi. Arab alifbosidagi barcha harflar o‘zak tashkil qiluvchi undoshlar ekanligi. Noo‘zak harflar va ularning qo‘llanilishi.

**5-mavzu. So‘z vaznlari**

Arab tilidagi so‘zlarning xilma-xil shakllarini bir tartibga solish. Arab tilida vazn, ya’ni qoliplarning mavjudligi. Uch harfli fe’llarning vaznini yasalishi.

**6-mavzu. Lug‘at bilan ishlash**

Arab tilida lug‘at bilan ishlashda so‘zning o‘zagini aniqlanishi. So‘zning o‘zagini aniqlash orqali so‘zning ma’nosini topish.

**7-mavzu. Jins kategoriyasi**

Arab tilida jins turlari. Muzakkar jins, ya’ni erkak kishini ifodalovchi so‘zlar. Muannas jins, ya’ni ayol kishini ifodalovchi so‘zlar.

**8-mavzu. Kelishik kategoriyasi**

Arab tilida kelishik: bosh, qaratqich va tushum kelishigi. Ismlarning turlanishi. Ikki kelishikli ismlar.

**9-mavzu. Son kategoriyasi. Ikkilik son**

Son va uning grammatik turlari. Ikkilik sonning yasalish va shakllari.

**10-mavzu. Ko‘plik son. To‘g‘ri ko‘plik**



Ko‘plik sonning gapdagi ma’nolari. To‘g‘ri ko‘plikning yasalish shakllari. Ko‘plikda moslashuv.

**11-mavzu. Siniq ko‘plik**

Siniq ko‘plikning shakllari. Siniq ko‘plikdagi so‘zlarning gapdagi vazifalari va xususiyatlari.

**12-mavzu. Son. Sanoq son va ularning qo‘llanilishi**

Son turlari. Sanoq sonlarning sanalmish bilan kelishi. Sonlarning moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar bilan kelishi. Sanoq sonlarning jins bilan kelishi va uning o‘zgarish qoidalari.

**13-mavzu. Tartib son va ularning qo‘llanilishi**

Tartib son. Tartib sonlarning sanalmish bilan kelishi. كَمْ so‘zining ishlatilishi. كَمْ so‘zi so‘roq so‘zi vazifasida. كَمْ so‘zi hitob so‘zi vazifasida.

**14-mavzu. Holat kategoriyasi**

Arab tilida so‘zlarning noaniq holatda kelishi. So‘zlarning aniq holatda kelishi. Aniqlik artiklsiz kelgan so‘zlarning aniq holatda bo‘lishi.

**3-modul. Gap va uning turlari**

**1-mavzu. Ismiy gaplar**

Arab tilida gap turlari. Ismiy gap va uning vazifalari. Gap bo‘laklarining kelish tartibi. Ismiy gapning jinsda va sonda moslashishi. Kesimi ega haqida xabar beradigan ismiy gap. Kesimi eganing o‘rni haqida xabar beradigan ismiy gap.

**2-mavzu. So‘roq gaplar va uning turlari**

Arab tilida so‘roq gaplarning turlari. Umumiy so‘roq gaplar va ularga oid yuklamalar. Maxsus so‘roq gaplar va so‘roq olmoshlari. Old ko‘makchilar bilan birikkan so‘roq olmoshlari. Alternativ so‘roq gaplar va ularning gapdagi ma’nolari.

**3-mavzu. Fe’liy gaplar**

Fe’l-kesimli gap. Fe’liy gapning strukturasi.

**4-mavzu. Old ko‘makchilar (predloglar)**

Arab tilida old ko'makchilarning turlarga bo'linishi. Asl predloglar va ularning gapdagi ma'nolari. Ot predloglarning gapdagi vazifalari. Murakkab predloglarning ma'no xususiyatlari.

**5-mavzu. Predloglarga qo'shiluvchi birikma olmoshlari**

Birikma olmoshlarining predloglarga qo'shilishi va sodir bo'ladigan ayrim o'zgarishlar. Fe'liy yoki ismiy gaplarda predlogli birikma olmoshining kelishi.

**6-mavzu. Kesimi old ko'makchi bilan kelgan ismiy gap**

Old ko'makchili ismiy kesimning yasalishi. "Kechikkan ega" haqida ma'lumot. Kesim old ko'makchi bilan kelgan ismiy gapning vazifasi.

**7-mavzu. So'z birikmasi. Moslashgan (sifatlovchi) aniqlovchi**

Arab tilida so'z birikmalari. Moslashgan aniqlovchining gapdagi vazifasi. Aniqlanmish va aniqlovchining tartib qoidalari. Moslashgan aniqlovchining grammatik kategoriyalar bilan bog'lanishi.

**8-mavzu. Moslashmagan (qaratqichli) aniqlovchi (izofa)**

Izofa birikmasi. Qaratqichli aniqlovchi va uning grammatik xususiyatlari. Qaralmish va qaratqich aniqlovchi. Izofaning grammatik kategoriyalar bilan kelish qoidalari. Izofa zanjiri, uning yasalishi va gapdagi vazifalari.

**9-mavzu. Egaga ta'sir qiluvchi yuklamalar**

Arab tilida yuklamalrning turlari. Egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning o'ziga xos xususiyatlari. Yuklamalarning gapdagi vazifalari.

**10-mavzu. لا mutlaq inkor yuklamasi**

Inkor yuklamalarining ismiy va fe'liy gaplarda kelishi. Inkor yuklamalari va ularning vazifalari.

## 4-modul. Fe'l

**1-mavzu. Fe'l haqida umumiy ma'lumot**

Arab tilida fe'l so'z turkumi haqida tushuncha. Fe'lning turlari. Fe'l zamonlari haqida ma'lumotlar. Fe'l mayllari. Arab tilida fe'l boblari.

**2-mavzu. Fe'l boblari. Uch undoshli fe'llarning I bobi. Fe'lning o'tgan zamon shakli**



Arab tilida fe'l boblari haqida. I bob fe'li, shakllari. Arab tilida zamon shakllari. O'tgan zamonda fe'lining tuslanishi. O'tgan zamon fe'li bilan keluvchi yuklamalar.

**3-mavzu. To'ldiruvchi**

Arab tilida to'ldiruvchi. Vositali to'ldiruvchining gaplarda ifodalanishi. Vositasiz to'ldiruvchining vazifalari va ma'no xususiyatlari.

**4-mavzu. Fe'l bilan kelgan birikma olmoshi**

Fe'lga qo'shiluvchi birikma olmoshlarning gapdagi vazifalari. Fe'liy gapda fe'lga qo'shiluvchi birikma olmoshining ma'no va xususiyatlari.

**5-mavzu. Fe'lning hozirgi-kelasi zamon shakli**

Fe'lning hozirgi-kelasi zamon shaklining yasalishi. Hozirgi-kelasi zamon fe'li bilan qo'llaniladigan yuklamalar.

**6-mavzu. Fe'l mayllari. Fe'lning shart mayli**

Fe'l shart mayli yasalishi. Shart yuklamalari va ularning gapdagi vazifalari.

**7-mavzu. Fe'lning istak mayli**

Istak mayli, yasalishi. Istak yuklamalari va ularning gapdagi vazifasi.

**8-mavzu. Fe'lning buyruq mayli**

Fe'l buyruq maylining yasalishi. Buyruq maylining gapdagi vazifasi.

**9-mavzu. II, V hamda III va VI bob fe'llari**

II va V bob fe'llarining yasalish shakllari. III va VI bob fe'llarining yasalish shakllari. Ularning ma'nolari.

**10-mavzu. IV, VII va IX bob fe'llari**

IV, VII va IX bob fe'llarining yasalish shakllari. Ularning ma'nolari.

**11-mavzu. VIII va X bob fe'llari**

VIII va X bob fe'llarining yasalish shakllari. Ularning ma'nolari.

**12-mavzu. Fe'l vaznlaridan yasalgan sifatdosh shakllari**

Sifatdosh shakllari va ularning turlari. Aniq daraja sifatdosh. Majhul daraja sifatdosh. Boblarning sifatdosh shakllari yasalishi va ularning ma'nolari.

### 13-mavzu. Fe'l vaznlaridan yasalgan masdar shakllari

Arab tilida masdar, ya'ni o'zbek tilidagi harakat nomi. Masdar shakllari. Har bir fe'l boblarining masdar shakllari yasalishi va ularning ma'nolari.

## Fors tili qismi bo'yicha
## 1-Modul. "Sharq tillari" faniga kirish

### 1-Modul. Fors alifbosi xususiyatlari

Kirish. Fors tili haqida umumiy ma'lumot. Grafika. Arab-fors alifbosi Arab yozuvi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Munfasil harflar haqida ma'lumot. Qisqa unlilarning yozuvda ifodalanishi. ب، پ،ت، ث harflari; ج ، چ، ح، خ harflari ; س، ش، ص، ض harflari; ط، ظ، ع، غ harflari ف،ق،ک،گ harflari; ل،م،ن،و،ه،ی harflari; Cho'ziq unlilarni yozuvda ifodalanishi; Diftong Bo'g'in va Urg'u; Shamsiy-qamariy harflar va ularning imlosi.

### 2-Modul. Bog'lama va olmosh

Ot kesimli sodda yig'iq gap. Ast bog'lamasi. Fors tilida olmosh. Olmoshlarning turlari. Ko'rsatish olmoshi va so'roq olmoshi. So'roq gapning tuzilishi. Kishilik olmoshlari. Bog'lamaning tuslanishi (to'liq shakli). Hast so'zining mustaqil ma'noda ishlatilishi. Bog'lamaning qisqa shakli

### 3-Modul. Ot so'z turkumi va izofa

Otlarda son kategoriyasi. Fors tilidagi arabiy kopliklar. Fors tilida izofa. Izofa zanjiri. Egalik affikslari. Egalikni ifodalanishi. Miqdor sonlar. Tartib sonlar.. Fors tilida yil, oy, kunlarni ifodalanishi

### 4-modul. Fe'l so'z turkumi, predloglar

Fe'l. Fe'llarning yasalishi. Fe'llarning noaniq shakli. Fe'llarning tarkibiga ko'ra turlari. Fe'l negizlari. O'tgan zamon aniq fe'li. Kelishiklarni ifodalanishi. Asosiy predloglar. Izofali predloglar. Murakkab predloglar. Yo-ye vahdat va yo-ye nakare. Xo'd o'zlik lomoshi. Hozirgi zamon fe'l negizi. Hozirgi-kelasi zamon fe'li. Qo'shma fe'llarni kontakt va distant holati. Fors tilida ot. Fors tilidagi otlarning yasalishi. Vaqtni ifodalanishi. Doshtan fe'li. Yoshning ifodalanishi. Payt holi. Yo-ye nesbat. Fors tilida ravish. Ravishlarni turlari. Buyruq mayli. Fe'lning shart-istak mayli. Hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli. Modal fe'llar. Modal so'zlar. O'tgan zamon davom fe'li. Numerativlar

### 5-modul. Fe'lning funksional shakllari. Qo'shma gap.



Sifatdosh. O'tgan zamon sifatdoshi. Ravishdosh.O'tgan zamon ravishdoshi. Payt ergash gap. Hozirgi zamon sifatdoshi.Yo-ye liyoqat. Yo-ye masdari. O'tgan zamon natijali fe'li. Uzoq o'tgan zamon fee'li. Sifat. Sifatlarning yasalishi. Sifat darajalari. Harakat yoki holat nomini bildiruvchi otlar.. Qisqartirilgan infinitive. Shaxssiz gaplar. Ahiq kelasi zamon fe'li.. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'lning majhul nisbati. Aniqlovchi ergash gap. O'tgan zamon shart-istak mayli. Shart ergash gap. To'siqsiz ergash gap. Sabab ergash gap

## IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:
- amaliy mashg'ulotlar mavzusini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovasion pedagogik texnologiyalardan unumli foydalana olishi;
- talabada natijani mustaqil tarzda qo'lga kiritish imkonini ta'minlash.

### Amaliy mashg'ulot doirasida beriladigan fanning nazariy qismi mazmuni

**Arab tili bo'yicha:** Arab tili alifbosi va yozuvi, u haqda qisqacha ma'lumot. Arab alifbosining o'ziga xos xususiyatlari. Munfasil va muttasil harflar. Diftonglar. Arab tili tovush tarkibi va uning alifboda ifodalanishi. Arab tilida harflarning talaffuzi, ularning yozilishi va o'qilishi. Unli va undosh harflar. Qisqa va cho'ziq unlilarning yozuvda ifodalanishi. Belgilar. Arab tilida so'z yasalishi, vaznlar, arabiy konstruksiyalar. Arab tilida so'z aniq va noaniqligining ifodalanishi. Arab tilida so'z tarkibi. O'zak va uning turlari. Otlarda jins kategoriyasi. Ot va fe'l kesimli sodda yig'iq gap. So'roq va ko'rsatish olmoshlari. So'roq gapning yasalishi. Arab tilida son kategoriyasi. Olmoshlar. Aniqlovchi va uning turlari. Sifat va uning darajalari. Arabiy izofaning yasalishi va imlosi. Izofa zanjiri. Egalik affikslari. Kesimlik kategoriyasi (asosiy predloglar). Fe'l. Fe'l negizlari va tarkibi. Fe'llarning asosiy shakllari. Fe'l zamonlarining yasalishi. Sifatdoshlar va ravishdoshlar. Masdar. Sifatdosh. Fe'l mayllari. Sifat va uning darajalari. Ega va kesimga ta'sir qiluvchi yuklamalar. Son. Sanoq, tartib son va ularning qo'llanilishi.

Ot-kesimli sodda yig'iq gap. So'z turkumlari. Ism so'z turkumi. Harf so'z turkumi. Fe'l so'z turkumi. Aniqlik va noaniqlik kategoriyasi. Ismlarda ikkilik va ko'plik kategoriyasi. Arab tilida kelishik. Egalik affikslari. Arab tilida "birlik"ning ifodalanishi. Fe'l mayllari. Sifat va uning darajalari.

Arab tilidagi maqsad va to'ldiruvchi ergash gap, aniqlovchi ergash gap, shart ergash gap, to'siqsiz ergash gap, sabab ergash gaplar haqida qisqa va umumiy tushunchalar.

**Fors tili bo'yicha:** Fors tili haqida umumiy ma'lumot. Fors alifbosi va yozuvi hamda uning o'ziga xos xususiyatlari (shamsiy va qamariy harflar). Diftonglar. Fors

tili tovush tarkibi va uning alifboda ifodalanishi. Fors tilida harflarning talaffuzi, ularning yozilishi va o‘qilishi. Arab satr usti belgilari (tashdid, hamza, tanvin, vasla).

Fors tilida gap va uning tuzilishi, arabiy va forsiy konstruksiyalar. Ot-kesimli sodda yig‘iq gap. So‘roq gapning yasalishi. Intonatsiya (ohang). است bog‘lamasi va uning shakllari. Olmoshlar.

Forsiy izofaning yasalishi va imlosi. Izofa zanjiri. Otlarning ko‘plik shakli. Egalik affikslari. Fors tilida sonlar (miqdor va tartib sonlar). Fors tilida yil, oy va kunlarning ifoda etilishi. Birlik va noaniqlikning ifodalanishi.

Fe’l. Fe’l negizlari va tarkibi. Fe’llarning asosiy shakllari. Fe’l zamonlarining yasalishi. Fe’llarda mayl kategoriyasi. O‘timli va o‘timsiz fe’llar. Fe’l nisbatlari. Vaqtning ifodalanishi. Sifatdoshlar va ravishdoshlar.

Ko‘makchi va uning turlari. Yoshning ifodalanishi.

Sifat va uning darajalari. Ravish va uning turlari. Ko‘makchi so‘zlar. Asosiy ko‘makchilar va ularning turlari. Izofali old ko‘makchilar, murakkab old ko‘makchilar, ort ko‘makchi. Bog‘lovchilar. Ergashtiruvchi bog‘lovchilar, biriktiruvchi bog‘lovchilar. Yuklamalar, so‘roq yuklamalari, inkor yuklamalari, kuchaytiruvchi yuklamalar, his-hiyajon yuklamalari.

So‘z birikmalari va ularning turlari. Izofali so‘z birikmalar. Old ko‘makchili so‘z birikmalari. Bitishuvli so‘z birikmalar. Murakkab so‘z birikmalar. Sodda gaplar sintaksisi. Bir tarkibli va ikki tarkibli gaplar. Shaxssiz gaplar. Gap bo‘laklari: gapning bosh bo‘laklari (ega va kesim), gapning ikkinchi darajali bo‘laklari. Ega bilan kesimning moslashuv turlari. Ot kesimli sodda yig‘iq va sodda yoyiq gaplar. Fe’l kesimli sodda gaplar.

Qo‘shma gaplar sintaksisi. Bog‘langan qo‘shma gaplar. Ergashgan qo‘shma gaplar: ega ergash gap, kesim ergash gap, to‘ldiruvchi ergash gap, aniqlovchi ergash gap, shart ergash gap, maqsad ergash gap, sabab ergash gap, payt ergash gap.

### V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim va topshiriqlar uchun tavsiya etiladigan mavzular:

**Arab tili bo‘yicha:**

1. ا، ب، ت، ث، ك، م، و، ن ى harflarining yozilish shakllari va talaffuzi. So‘zlar mashq qilish. Qisqa va cho‘ziq unlilar.
2. ذ ر، ز، د، خ، ح، ج harflarining yozilish shakllari va talaffuzi. So‘zlar mashq qilish. Tashdid.
3. ل، ق، ف، ط، ظ، ع، غ harflarining yozilish shakllari va talaffuzi. So‘zlar mashq qilish. Tanvin.
4. س، ش، ص، ض، ه harflarining yozilish shakllari va talaffuzi. So‘zlar mashq qilish. Hamza.
5. Shamsiy va qamariy harflar. Aniqlik artikli xususida asosiy va qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan holda chuqurroq ma’lumot olish.
6. Eski o‘zbek yozuviga xos harflar yozilish shakllari va talaffuzi. So‘zlar mashq qilish.
7. Eski o‘zbek yozuviga xos harfiy birikmalar va ularning o‘qilishi xususida asosiy va qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan holda chuqurroq ma’lumot olish.



8. Isloh qilingan eski o‘zbek yozuvi va uning imlosi xususida asosiy va qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan holda chuqurroq ma’lumot olish.
9. Ot so‘z turkumi xususida asosiy va qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan holda chuqurroq ma’lumot olish.
10. Sifat. Tub, nisbiy va rangni anglatuvchi sifatlar. Mavzuga oid asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
11. Olmoshlar. Mavzuga oid asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
12. So‘z o‘zagi. O‘zak undoshlar. Shakl yasovchi undoshlar mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot o‘qish.
13. So‘z vaznlari mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot o‘qish.
14. Jins kategoriyasi mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot o‘qish.
15. Kelishik kategoriyasi mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot o‘qish.
16. Son kategoriyasi. Ikkilik son mavzusi bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
17. Ko‘plik son. To‘g‘ri va siniq ko‘plik mavzusi bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
18. Son. Sanoq va tartib son va ularning qo‘llanilishi mavzusi bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
19. Holat kategoriyasi mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot o‘qish.
20. Ismiy gaplar mavzusi bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
21. So‘roq gaplar va uning turlari mavzusi bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
22. Fe’liy gaplar mavzusi bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
23. Old ko‘makchilar (predloglar) mavzusi bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
24. Predloglarga qo‘shiluvchi birikma olmoshlari mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot o‘qish.
25. Kesimi old ko‘makchi bilan kelgan ismiy gap mavzusi bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
26. So‘z birikmasi. Moslashgan (sifatlovchi) aniqlovchi mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot o‘qish. Mashqlar bajarish.
27. Moslashmagan (qaratqichli) aniqlovchi (izofa) mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot o‘qish. Mashqlar bajarish.
28. Egaga ta’sir qiluvchi yuklamalar mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot o‘qish.
29. لا mutlaq inkor yuklamasi mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot o‘qish.
30. Fe’l boblari. Uch undoshli fe’llarning I bobi. Fe’lning o‘tgan va hozirgi-kelasi zamon shakli mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot o‘qish.
31. To‘ldiruvchi mavzusi bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
32. Fe’l bilan kelgan birikma olmoshi
33. Fe’l mayllari mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot o‘qish.

34. II, V hamda III va VI bob fe'llari mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot o'qish.
35. IV, VII va IX bob fe'llari mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot o'qish.
36. VIII va X bob fe'llari mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot o'qish.
37. Fe'l vaznlaridan yasalgan sifatdosh shakllari mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot o'qish.
38. Fe'l vaznlaridan yasalgan masdar shakllari mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot o'qish.
39. Ijtimoiy mavzularda sodda matnlar tuzish.

**Fors tili bo'yicha:**

1. Kirish. Fors tili haqida umumiy ma'lumot
2. Grafika. Arab-fors alifbosi Arab yozuvi va uning o'ziga xos xususiyatlari
3. Munfasil harflar haqida ma'lumot
4. Qisqa unlilarning yozuvda ifodalanishi
5. Diftong Bo'g'in va Urg'u
6. Arab satr ustki belgilari
7. Shamsiy-qamariy harflar va ularning imlosi.
8. Ot kesimli sodda yig'iq gap
9. Ast bog'lamasi
10. Fors tilida olmosh. Olmoshlarning turlari.
11. Ko'rsatish olmoshi va so'roq olmoshi
12. So'roq gapning tuzilishi
13. Kishilik olmoshlari
14. Bog'lamaning tuslanishi (to'liq shakli)
15. Hast so'zining mustaqil ma'noda ishlatilishi
16. Bog'lamaning qisqa shakli
17. Otlarda son kategoriyasi
18. Fors tilidagi arabiy kopliklar
19. Fors tilida izofa
20. Izofa zanjiri
21. Egalik affikslari. Egalikni ifodalanishi
22. Miqdor sonlar. Tartib sonlar
23. Fors tilida yil, oy, kunlarni ifodalanishi
24. Predloglar
25. Buyruq mayli
26. Modal fe'llar. Modal so'zlar.
27. Maqsad ergash gap. To'ldiruvchi ergash gap.
28. O'tgan zamon davom fe'li.
29. Numerativlar
30. Sifatdosh. O'tgan zamon sifatdoshi. Ravishdosh.O'tgan zamon ravishdoshi
31. Payt ergash gap
32. O'tgan zamon natijali fe'li
33. Uzoq o'tgan zamon fee'li.
34. Sifat. Sifatlarning yasalishi. Sifat darajalari.



35. Harakat yoki holat nomini bildiruvchi otlar
36. Ahiq kelasi zamon fe'li.
37. Aniqlovchi ergash gap
38. Shart ergash gap
39. To'siqsiz ergash gap
40. Sabab ergash gap

Ishchi dasturni shakllantirish jarayonida mustaqil ta'lim soatlari hajmiga mos holda mavzularni tanlab belgilash tavsiya etiladi.

Talaba "Sharq tillari va eski o'zbek yozuvi" fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish va topshiriqlarni bajarishda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda mavzular bo'yicha referat, taqdimot tayyorlashi tavsiya etiladi. Bunda o'qitish va nazorat kilishning avtomatlashtirilgan tizimlari, fan buyicha qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash hamda Internet tarmog'idan foydalanishi maqsadga muvofiq. Mustaqil ishlar joriy nazorat tarkibida baholanadi.

## VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

### Asosiy adabiyotlar


1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1-, 2-jildlar. –T., 1998, 2003.
2. Faruk Abu-Chacra. Arabic: An Essential Grammar. Routledge, 2007.
3. Abdusamadov M. Fors tili. –T.: Sharq, 2007.
4. Anousha Shahsavari, Blake Atwood. Persian of Iran Today, 2 Volume. UT Austin Center for Middle Eastern Studies, 2013.


### Qo'shimcha adabiyotlar


1. Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №11.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni (Xalq so'zi 2017-yil, 8-fevral)
3. Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilanbirga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017
4. Sh.M.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekiston, 2017.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida (Xalq so'zi 2017-yil, 21-aprel).
6. Baranov X. Arabsko-russkiy slovar. M., 1985.
7. Xolidov B. Arab tili darsligi. T.: O'qituvchi, 2007.
8. Abdujabborov A. Arab tili. T., 2007.

9. Talabov E. Arab tili. –T.: O'qituvchi, 1993.
10. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. –T.: Nihol, 2010.
11. Quronbekov A., Vohidov A., Ziyayeva T. Fors tili. –T.: Musiqa, 2009.
12. Rubinchik Yu.A. Grammatika sovremennogo persidskogo literaturnogo yazika. - M., 2001.
13. Rubinchika Yu.A. Persidsko-russkiy slovar. –M., 1965.
14. Muin M. Farhang-e forsi. –Tehron, 1371.
15. Is'hoqov F. Eski o'zbek tili va yozuvi. – Toshkent. 1995.

**Internet saytlari**

1. http://library.ziyonet.uz/uz/book/35164
2. http://library.ziyonet.uz/uz/book/35149
3. http://library.ziyonet.uz/uz/book/41245
4. http://library.ziyonet.uz/uz/book/40578
5. http://library.ziyonet.uz/uz/book/34135
6. http://library.ziyonet.uz/uz/book/33460
7. http://library.ziyonet.uz/uz/book/33430
8. http://library.ziyonet.uz/uz/book/29850
9. http://library.ziyonet.uz/uz/book/17115
10. http://library.ziyonet.uz/uz/book/36849
11. http://library.ziyonet.uz/uz/book/57597
12. http://library.ziyonet.uz/uz/book/10886
13. http://library.ziyonet.uz/uz/book/9549
14. http://library.ziyonet.uz/uz/book/56805
15. http://library.ziyonet.uz/uz/book/35